Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 4, Issue 1, 2025 Traditional Medicine

VARIKOZ KASALLIGINI XALQ TABOBATI USULLARI BILAN DAVOLASH

Gulruhsor Sanjarbek qizi Kimsanova
Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0005-5354-7012
E-mail: gulruhksorrakhmanova@gmail.com

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov
Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi
https://orcid.org/0000-0003-1625-0330

Mirjalol Muqimjon o'g'li Mo'minjonov
Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari doktori (DSc), O'zbekiston Tabobat akademiyasi raisi o'rinbosari
https://orcid.org/0009-0002-8896-202X

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss1.2025.406

Kalit so'zlar:
Varikoz, sarimsoqpiyoz, asal, flavonoidlar, bufer eritma, antioksidantlik

Annotatsiya
Ushbu maqolada varikoz kasalligi, uning kelib chiqish sabablari hamda davolash usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xalq tabobatida varikoz kasalligini davolashda sarimsoqpiyoz hamda asalning ma’lum bir nisbatdagi aralashmasidan foydalanish haqida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan. Sarimsoqpiyozning va asalning turli nisbatdagi aralashmasini kimyoviy tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlangan hamda biologik faolligi antioksidantlik xossasi orqali isbotlangan.

Havola uchun
Kimsanova, G. S. qizi, Asqarov, I. R., & Mo’minjonov, M. M. o’g’li. VARIKOZ KASALLIGINI XALQ TABOBATI USULLARI BILAN DAVOLASH. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 4(1). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss1.2025.406

Kirish. Varikoz kasalligi hozirgi kunda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo’lib, dunyo aholising 20 foizdan ortiq qismi ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda ham ayollarning 40 foiz qismi, erkaklarning esa 32 foiz qismi varikoz kasalligi bilan kasallangan. Ushbu kasallikning asosiy kelib chiqish sabablari – nosog’lom turmush tarzi, noto’g’ri ovqatlanish, semizlik, noqulay oyoq kiyim kiyish, shuningdek, irsiyat hamda gormonal o’zgarishlardir. Varikoz kasalligini davolamaslik - vena qon tomirlarida tugunlar paydo bo’lishi va ushbu tugunlarning to’g’ri yurakka borib inson hayotiga nuqta qo’yish bilan tugaydi [1].

Varikoz kasalligini davolashda organizmga flavonoidlarning ahamiyati juda katta bo’lib, ular salitsil kislotasi bilan birgalikda o’z hususiyatlarini yana yorqinroq namoyon etadi. Vena qon tomirlarining funksiyasi buzilishi natijasida hosil bo’lgan burmalar varikozni keltirib chiqaradi. Antioksidantlar esa qon tomirlaridagi yomon xolesterinni eritadi, vitaminlar esa qon tomirlarining funksiyalarini qayta tiklanishini ta’minlab beradi [2].

Tadqiqot obyekti sifatida asal hamda sarimsoqpiyozdan tayyorlangan mahsus aralashma olindi. Bunga asosiy sabab har ikki mahsulotning yuqori antioksidantlik, antiradikallik hususiyatlari, shuningdek bir biriga yaqin bo’lgan mikro va makro elementlarga boyligidir [3,7].

Asal - ishchi asalarilar o'simliklar gulidagi shirani organizmida qayta ishlash yo'li bilan hosil qiladigan shirin suyuqlik. Asalda odam uchun foydali moddalarning 70 dan ortiq turi bor. Shuningdek, asalda mineral moddalar: kalsiy, natriy, kaliy va boshqalar, mikroelementlar, organik kislotalardan olma, limon kislotalari, vitaminlar (B2, B6, PP, C, E, K) borligi aniqlangan. Odatda och rangli asal qimmatroq hisoblanadi [3]. Asalning kimyoviy tarkibi u olinadigan joyga, yon atrofidagi tabiatga, u yerda o'sadigan o'simliklarning hilma xilligiga bog'liq. Xalq tabobatida asalga tur hildagi o'simliklarni aralashtirib surtmalar tayyorlaniladi. Shuningdek, asal bilan mahsus nisbatlardda tayyorlangan aralashmalar iste'moli ko'plab kasalliklarga davo bo'ladi [4,5,6].

Sarimsoqpiyoz - piyozdoshlar oilasi piyozlar turkumiga mansub ikki va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turi, sabzavot ekini. Bargi lentasimon, ildizi Gullari mayda, ikki jinsli, qo'ng'iroqsimon, oq yoki binafsharang. Piyozi murakkab, pardasimon umumiy qobiq ichida 7–30 dona mayda piyozchalaripatak. Sarimsoqpiyozning kimyoviy tarkibi juda boy bo'lib, unda mikro hamda makro elementlar, fitonsidlar, flavanoidlar bor [7].

Xalq tabobatida ham sarimsoqpiyozning o'rni beqiyos. Yurak qon tomir kasalliklarida, teri kasalliklarida, gijjalarga qarshi vosita sifatida sarimsoqpiyozdan keng qo'llaniladi [4,5,6].

1-jadval. Asal hamda sarimsoqning kimyoviy tarkibi.(100 g mahsulotga nisbatan miqdori)

T/r	Modda nomi	Asal	Sarimsoqpiyoz
1.	Suv	17.1 g	58-59 g
2.	Oqsil	0.3 g	6.4±0.2 g
3.	Yog'	0	0.5 g
4.	Uglevod	82.4 g	33.1 g
5.	Riboflavin (vitamin B_2)	0.038 mg	0.1 mg
6.	Niatsin (vitamin B_3)	0.121 mg	0.3 mg
7.	β-karotin	-	5 mkg
8.	Tiamin (vitamin B_1)	-	5 mg
9.	Pantonen kislotasi (vitamin B_5)	0.068 mg	0.7 mg
10.	Pirodoksin (vitamin B_6)	0.024 mg	1.2 mg
11.	Folatsin (vitamin B_9)	2 mkg	3 mkg
12.	Askorbin kislotasi (vitamin C)	0.5 mg	31±2 mg
13.	Kaltsiy	6 mg	181±25 mg
14.	Temir	0.42 mg	1.7 mg
15.	Magniy	2 mg	24-26 mg
16.	Fosfor	4 mg	153±8 mg
17.	Kaliy	52 mg	401±26 mg
18.	Natriy	4 mg	17 mg
19.	Rux	0.22 mg	1.2 mg
20.	Marganes	-	1.7 mg
21.	Selen	-	14±3 mkg

Tadqiqot natijalari. " Oltin vodiy tabiati " sihatgohida uzoq yillar davomida asal hamda quritilgan sarimsoqpiyozdan foydalanib kelinmoqda. Buning uchun 4 hil aralashma tayyorlanadi. 1-aralashmaga 7 osh qoshiq toza asal hamda 1 osh qoshiq sarimsoqpiyoz kukuni, 2-aralashmaga 6 osh osh qoshiq toza asal hamda 1 osh qoshiq sarimsoqpiyoz kukuni, 3-aralashmaga 5 osh qoshiq toza asal hamda 1 osh qoshiq sarimsoqpiyoz kukuni, 4-aralashmaga 4 osh qoshiq toza asal hamda 1 osh qoshiq sarimsoqpiyoz kukuni, qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Har bir aralashma 21 kundan 2

mahaldan varikoz bilan kasallangan tanaga surkaladi va aynan ushbu aralashma 2 mahal iste'mol qilinadi. Davolash davomida bemorlar albatta "Askalsiy" 2tadan 3 mahal, "As-tosh" 3 mahal, "As-shifo" 3 mahaldan istemol qilishlari shart. Ushbu muolajani qilgan sanatoriyadagi bemorlarda varikoz kasalligi butunlay yo'q bo'lib ketgani juda ko'p kuzatilgan.

Andijon Davlat Universitetining ilmiy laboratoriyasida ushbu aralashmalarning antioksidantlik hususiyati aniqlandi, va ularning suvli hamda spirtli ekstraktlarining antioksidantlik xususiyati solishtirildi.

Tekshirilgan namunalarning antioksidant faolligi adrenalinning autooksidlanishini ingibirlashi bo'yicha foizlarda (AF%) ifodalanadi va quyidagi formula bilan hisoblandi hamda 2-jadvalda keltirildi:

$$AF = \frac{(D_1 - D_2) \cdot 100}{D_1}$$

Bu yerda, D_1-buferga qo'shilgan adrenalin tartrat eritmasinig optik zichligi, D_2-buferga qo'shilgan namuna ekstrakti va adrenalin tartratni optik zichligi.

2-jadval. Namunalar ekstraklarining antioksidant faolliklari qiymatlari.

Vaqt (daqiqa)	AF, %							
	4:1		5:1		6:1		7:1	
	suvli	spirtli	suvli	spirtli	suvli	spirtli	suvli	spirtli
1- daqiqa	-14.35	-22.78	-19.41	-10.55	-4.22	-13.08	-3.80	-16.03
3- daqiqa	-8.37	-11.75	-9.16	-6.18	-2.39	-3.78	-2.39	-5.38
5- daqiqa	-3.23	-3.38	-2.15	-1.38	-1.08	2.61	-0.92	2.00
10- daqiqa	**5.66**	**7.45**	**8.55**	**5.93**	**0.55**	**9.52**	**0.55**	**9.38**

Olingan natijalar tekshirilayotgan namunalarning 1-, 3-, 4-namunalar spirtli ekstraktlari suvli ekstraktlariga nisbatan yuqoriroq antioksidanlik faolligini namoyon qilishini ko'rsatadi. Shuningdek varikoz kasalligini davolashda ishlatiladigan dori vositalari hamda mazlardan tan narxi jihatdan ancha arzon bo'lib, organizmga ularga qaraganda ancha tez so'riladi.

Tajribaviy qism. Analiz uchun berilgan namunalarning Adrenalinning in vitro sharoitida autoksidlanish reaksiyasini ingibirlanishi metodi bilan ya'ni adrenalinning autooksidlanish reaksiyasini ingibirlash qobiliyati va shu bilan birga kislorodning faol shaklini (KFSh) hosil bo'lishini oldini olishi bilan baholanadi, Tekshirilgan namunalarning antioksidant faolligi adrenalinning autooksidlanishini ingibirlashi bo'yicha foizlarda (AF%) ifodalanadi [8,9]

Namuna ekstraktini tayyorlash:


Namunalarning ekstraktlari ikki xil usulda tayyorlandi [10].

1. 0.75 g o'simlik namunasini 25 ml suvda 10 daqiqa qaytarma sovitkich bilan jihozlangan kolbada qaynatish bilan amalga oshirildi. Olingan ekstrakt 0,45 mkm li shpritsli filtrdan o'tkazilib, analiz uchun foydalanildi.
2. 0.75 g o'simlik namunasi 25 ml 96 % li etanolda 20 daqiqa davomida 60 ^oC haroratda ultratovushli ekstraksiya qilindi. Olingan ekstrakt 0,45 mkm li shpritsli filtrdan o'tkazilib, analiz uchun foydalanildi.


Spektrofotometrik tahlil.

0,2 M karbonatli (Na_2CO_3-$NaHCO_3$, pH=10,65) buferdan 3 ml hamda adrenalin tartratning 0,18 % eritmasidan 0,14 ml solib, tez aralashtirib, qalinligi 10 mm bo'lgan kyuvetada K7000 (YOKE, Xitoy) spektrofotometrda 10 daqiqa davomida har 30 sekundda 347 nm to'lqin uzunligida optik zichligi D_1 aniqlandi.

Tekshirilayotgan o'simlik ekstraktidan 45 mkl, bufer eritmadan 3 ml va adrenalin tartratning 0,18 % li eritmasidan 0,14 ml olib yuqoridagi usulda aralashtirildi hamda 347 nm to'lqin uzunligida optik zichligi o'lchandi (D_2).



1-rasm. Adrenalin va namunalar suvli ekstrakti qo‘shilgan adrenalinning optik zichliklari o‘sish diagrammasi (λ=347 nm).



2-rasm. Adrenalin va namunalar suvli ekstrakti qo‘shilgan adrenalinning optik zichliklari o‘sish diagrammasi (λ=347 nm).

Xulosa. Xalq tabobatida varikoz kasalligini oldini olish va davolash juda katta ahamoyatga ega. Sarimsoqpiyoz va asalning mahsus aralashmalaridan foydalanish ushbu kasallik bilan aziyat chekayotgan bemorlarga kasallikni yengib chiqishda yordam beradi. Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, 6:1 nisbatdagi namunaning spirtli ekstrakti ekstraktlarga nisbatan yuqori antioksidantlikka ega ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa ushbu aralashmalarni “Askalsiy”, “As-tosh”, “As-shifo” oziq ovqat qo’shilmalari bilan birgalikda iste’mol qilish bemorlarning to’liq tuzalib ketishida ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

1. Веденский А.Н. Варикозная болезнь. Л.: Медицина, –1983. –С. -207.

2. Babajanov A.S., Toirov A.S., Ruziboyev S.A., Axmedov A.I. Oyoq venalari varikoz kasalligi va uni davolash usullari. T.: “Qamar media”. –2022. –B. 7-16.
3. Кривцов Н. И., Крылов В. Н., Лебедев В. И., Сокольский С. С. Продукты пчеловодства для здоровья. К.: “Агропромполиграфист”. –2002. –С 272.
4. Asqarov I.R. Sirli tabobat. T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi". –2021. 112-116.
5. Asqarov I.R. Tabobat qomusi. T.: “Mumtoz so’z”. – 2019. –B. 692-693.
6. Asqarov I.R. Fitoterapiya. T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”. –2023. –B. 664-665.
7. Алексеева М. В. Чеснок. М.: “Россельхозиздат”. –1979. –С. 88
8. Патент. RU2144674C1. Способ определения антиоксидантной активности супероксиддисмутазы и химических соединений. 2000. Url:https://patentimages.storage.googleapis.com/4b/17/a7/c0848d28409d60/RU2144674C1.pdf.
9. Рябинина, Е. И., Зотова, Е. Е., Ветрова, Е. Н., Пономарева, Н. И., & Илюшина, Т. Н. (2011). Новый подход в оценке антиоксидантной активности растительного сырья при исследовании процесса аутоокисления адреналина. Химия растительного сырья, (3), 117-121.
10. Askarov, I. R., Abdullaev, S. S., Mamatkulova, S. A., & Abdulloev, O. S. (2024). ANTIOXIDANT ACTIVITY AND ELEMENTAL COMPOSITION OF MIXTURES OF FIG AND COMMON UNABI FRUITS. Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine, 3(3), 179–205., https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss3.2024.320.